

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
**FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>H.B.Nuriddinova</b>	
Linguistic feature of english riddles .....	129
<b>S.S.Qozaqova</b>	
"Boburnoma" kompozitsiyasining struktural tahlili.....	133
<b>A.M.Abjalov</b>	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	139
<b>N.B.Xudayberganova, D.M.Yuldasheva</b>	
Bolalar bog'chasida nutqiy o'yinlar yordamida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish .....	143
<b>G.Sh.Ergasheva</b>	
Do'stlik va dushmanlik konseptlarining leksik-semantik tahlili: o'zbek va ingliz tillari misolida.....	147
<b>M.A.Abduqodirova</b>	
A comparative semantic study of the mechanisms of expressing "Irony" in English and Uzbek ..	153
<b>M.A.Sayidova</b>	
Xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	159
<b>A.X.Шукрова</b>	
Taxlipli қиёсии вожаҳои ифодагари расму оинҳои миллӣ дар гӯишҷои тоҷикони	
Сариосиё ва Самарқанд .....	163
<b>M.N.Xamdamova</b>	
Yangi O'zbekiston qonunchiligidagi til masalasi va yurislingvistika.....	172
<b>K.T.Sindorov</b>	
She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi masalalari .....	176
<b>Х.С.Шукрова</b>	
Taxlipli баъзе вожаҳои лексикаи заргарӣ ва ороишӣ дар "Шоҳнома"-и Фирдавсӣ .....	180
<b>Г.Р.Ташматова</b>	
Стратегии интеграци обучени языку и предметному содержанию в развитии	
профессиональной коммуникативной компетенции .....	187
<b>N.K.Abbasova, M.I.Abduvaliyeva</b>	
Weather and natural phenomena in english and russian proverbs: a structural analysis .....	193
<b>N.K.Abbasova, Sh.A Anastasiya</b>	
Integrating AI into esp course to improve language learning through smart and effective strategies .....	197
<b>I.I.Po'latova</b>	
O'zbek tilidagi evfemizmlarning badiiy asarlarda qo'llanilishi .....	205
<b>O.Q.Xasanova</b>	
So'z boyligi bilan ishslashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	209
<b>K.A.Abdurashidova</b>	
Образы в народных легендах: особенности, роль и поэтика в узбекской и	
английской традициях.....	213
<b>N.A.Abdullayeva</b>	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs.....	219
<b>D.Y.Kambarova</b>	
Cutting-edge approaches to effective language teaching in the digital era .....	222
<b>G.T.Khaitova</b>	
O'zbek va ingliz tillaridagi "yaqin-uzoq" oppozitsiya komponentli frazeologik birliklar tahlili .....	229
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Linguocultural analysis of somatic phraseologisms in proverbs.....	233
<b>J.A.Egamnazarov</b>	
"Boburnoma"ning uch xil tarjimasida harbiy harakatlarni ifodalovchi fe'llarning qiyosiy tahlili.....	238
<b>K.T.Israilova</b>	
ijtimoiy tarmoqlar tilida muloqotning dinamik evolyutsiyasi .....	242
<b>M.M.Botirova, Z.G.Qodirova</b>	
Ta'limiyl korpus lingvistikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili.....	246
<b>F.K.Aminov</b>	
Multimodal characteristics of women's language on instagram: a discourse analysis of digital	
identity and engagement strategies .....	250
<b>Z.M.Sobirova</b>	
Nutqiy tafakkurning neyropsixolingvistik tavsifi.....	254



УО'К: 528.942.004.85

**SO'Z BOYLIGI BILAN ISHLASHDA DIDAKTIK TAMOYILLARNI JORIY ETISH****IMPLEMENTING DIDACTIC PRINCIPLES IN WORKING WITH VOCABULARY****РЕАЛИЗАЦИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В РАБОТЕ С ЛЕКСИКОЙ****Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasи mudiri. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada so'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish, avval o'rganilgan chet tillaridagi bilimlarni inobatga oлган holda qaysi mavzulariga oid so'z boyligini o'rgatish ma'qul ekanligi, tillarning qarindoshligiga ko'ra mavjud bo'lgan o'xshashliklar asosida o'rgatish kabiilar tahlii qilingan.*

**Abstract**

*This article analyzes the introduction of didactic principles in working with vocabulary, the relevance of previously learned foreign language knowledge to the topic of vocabulary teaching, and the possibility of teaching based on the similarities between languages.*

**Аннотация**

*В данной статье представлены дидактические принципы работы со лексикой, по каким предметам следует преподавать лексику с учетом знания ранее изученных иностранных языков, родства языков на основе существующих сходств и т. д. были проанализированы.*

**Kalit so'zlar:** so'z boyligi, darslik, chet tili, nemis tili, til o'rganuvchi, topshiriq, mashq, mavzu, tamoyil.

**Key words:** vocabulary, textbook, foreign language, German, language learner, task, exercise, topic, principle.

**Ключевые слова:** словарный запас, учебник, иностранный язык, немецкий язык, изучающий язык, задание, упражнение, тема, принцип.

**KIRISH**

Chet tilini o'rganishga mo'ljallangan har bir darslik so'z boyligini oshirishga mo'ljallangan juda ko'p mashq va topshiriqlarni o'z ichiga qamrab oladi. So'z boyligini oshirishga mo'ljallangan topshiriqlar til o'rganuvchilar uchun juda foydali hisoblanadi. Ularni qiziqarli tarzda taqdim etish esa til o'rganuvchilarning samarali natijaga erishishlarida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu dunyoning ko'plab olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay [1,2,3,4,5,6,7], nemis tilini o'rgatishda so'z boyligini oshirish tamoyillarini tadqiq etish o'zining aniq echimlarini topmagan.

**ASOSIY QISM**

Belgilangan mavzu bo'yicha taqdim etilgan topshiriq orqali til o'rganuvchilar shu mavzuga oid so'zlarni o'zlashtiradilar. Odatda ingliz tilidan so'ng nemis tili o'rgatilganida darsliklarda ikki tildagi bir-biriga yaqin so'zlarga alohida urg'u berish maqsadga muvofiq. Masalan, ob-havo mavzusidagi quyidagi so'zlar til o'rganuvchilar uchun oson o'zlashtirilishi mumkin:

*Wetter-weather*

*Regen-rain*

*Wind-wind*

*Schnee-snow*

*Sonne-sun*

*sonnig-sunny*

*kalt-cold*

*heiß-hot kabi.*

Bunday o'xhash so'zlar yordamida tuzilgan matnni til o'rganuvchilar nemis tilidagi so'zlarning tarjimasini bilmagan holda ham tushunishlari mumkin. Buning natijasida esa til o'rganuvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchlari ortadi va til o'rganishga bo'lgan motivatsiyalari kuchayadi.

Uchinchi darajali chet tilini o'rganish tamoyillaridan foydalanib so'z boyligini oshirish jarayonini tashkil etishda quyidagi savollarga javob berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- O'rganilgan chet tillardagi bilimlarni inobatga olgan holda qaysi mavzularga oid so'z boyligini o'rgatgan ma'qul? (Masalan, ingliz va nemis tilidagi umumiy so'zlarni inobatga olish)
- Til o'rganuvchilar qaysi so'zlarni o'rganishga qiziqishlari kuchli, ular qaysi iboralarni ko'proq qo'llashadi va shuning uchun bu so'zlar ertaroq o'rgatilishi lozimmi?
- So'z boyligi bilan ishlaganda asosiy urg'uni nimaga berish kerak?
- Xatoga sabab bo'ladigan tilni qiyoslash holatlarda nima qilish kerak?
- Til o'rganuvchilar so'zlarni uzoq muddat xotiralarida saqlashlari uchun nima qilish kerak?

#### MUHOKAMA

Endi esa ushbu savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Agar nemis tili ingliz tilidan keyin o'rganilayotgan bo'lsa, lug'at ikki tilda parallel qo'llanadigan so'zlarni o'z ichiga olishi lozim. Yuqorida ham biz nemis va ingliz tillaridagi parallel so'zlarga bir qator to'xtalib o'tgan edik. Boshqa til turkumlarida ham iloji boricha parallel so'zlarni tanlashga harakat qilish lozim. Bunda quyidagi aspektlarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

Tillarning qarindoshligiga ko'ra mavjud bo'lgan o'xhashliklar. Qarindosh bo'lgan tillarda ko'plab mavzularda bir-biriga o'xhash bo'lgan so'zlar uchraydi. Masalan, sonlar, oila, ob-havo, tabiat hodisalari, transport vositalari, kasblar, fanlar kabi [1].

Internatsional so'zlar. Internatsional so'zlar asosan lotincha yoki grekchadan kelib chiqqan so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlarni birinchi tildagi bilimlarga asoslangan holda ham tushunish mumkin. Masalan, Taxi yoki Start kabi so'zlar. Bunday so'zlar odatda sport, tibbiyat, musiqa, san'at kabi mavzularda ko'p uchraydi.

O'zlashma so'zlar. Bunday so'zlar insonlarning kundalik muloqotida keng qo'llaniladi, lekin bu so'zlar ma'lum tildan o'zi bog'liq bo'lgan obyekt yoki konsepsiya bilan birga kirib keladi. Bunday so'zlar odatda Germaniyada anglisizmlar deb yuritiladi. Bu holat Germaniyaga ingliz-amerika madaniyatining kirib kelishi bilan izohlanadi. Masalan, modaga oid Jeans, T-Shirt, Slip kabi so'zlar nemis tiliga ingliz tilidan o'zlashgan. Bunday so'zlar axborot texnologiyalari mavzusida ham ko'p uchraydi. Masalan, Chat, surfen, PC, Internet kabi.

Uchinchi darajali chet tilini o'qitishda mavjud paralleliliklardan foydalanishda til o'rganuvchilar bilan ushbu paralleliliklarni qayta ishslash va transfer imkoniyatlarini til o'rganuvchilarga ko'sata olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda birinchi navbatda tushunishga bo'lgan ishonchni mustahkamlash turadi. Bunday tushuniladigan so'zlar "Tushunish lug'ati" deb nomlanadi va ular maqsadli tarzda shakllantiriladi. Bu jarayonda til o'rganuvchilarning e'tiborini aynan o'xhashliklarga jalb qiladigan mashqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. va til o'rganuvchilar o'zlarining boshqa tillardagi mavjud bilimlari asosida yangi tildagi so'zlarni tushuna olishadi.

Chet tilidagi so'zlarni o'rganishda "noto'g'ri do'stlar" tushunchasi ham qo'llaniladi. Tillar o'rtaqidagi qarindoshlik asosida uchraydigan ko'plab paralleliliklar til o'rganuvchilarning so'z boyligi tez shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Bunday so'zlar yozilish yoki talaffuz jihatidan tanib olinadi va ma'nosi tushunarli bo'ladi. Ba'zi hollarda esa talaffuzi yoki yozilishi bir xil bo'lsa-da, ma'nosi boshqacha bo'lgan so'zlar ham uchrab turadi. Bunday so'zlar "noto'g'ri do'stlar" deb nomlanadi va ko'p hollarda til o'rganuvchilarning xato qilishlariga sabab bo'ladi [6].

Quyida bir necha misollarni keltirib o'tmoqchimiz:

Ingliz tilidagi so'z	Nemis tiliga to'g'ri tarjima	Ingliz tilidagi noto'g'ri do'stlar	Noto'g'ri do'stlarning nemis tiliga tarjimasi
get, receive	Bekommen	Become	Warden
Poison	das Gift	Gift	das Geschenk
way, type	die Art	Art	die Kunst

## TILSHUNOSLIK

folder/briefcase	die Mappe	Map	der Stadtplan/ die Landkarte
------------------	-----------	-----	------------------------------

Lekin inglez va nemis tillaridagi parallel so'zlar juda ham ko'p va til o'rganuvchilarning xatoga yo'l qo'yish ehtimoli juda ham kam. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, uchinchi darajali chet tillarni o'rganishda xatolarning kelib chiqish manbalarini o'rganish jarayoni boshidayoq aniqlashga katta qiziqish bilan qaraladi. Shu sababdan til o'rganuvchilarga hamma o'xshash so'zlar ham to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmasligi haqida tushuncha berish lozim.

Noto'g'ri do'stlarni o'rgatishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi:

- til o'rganuvchilar birgalikda noto'g'ri do'stlar aks etgan poster tayyorlashadi va uni sinf xonasiga ilib qo'yishadi, yangi topilgan noto'g'ri do'stlar esa yana shu posterga kiritilishi mumkin;
- til o'rganuvchilarga no'to'g'ri do'stlarni tasvirlash topshirig'i beriladi. Til o'rganuvchilar birgalikda shunday so'zlarni yozib, chizib xotira o'yini uchun material tayyorlashlari va o'ynashlari mumkin;
- agar til o'rganuvchi noto'g'ri do'stlarni qo'llashi natijasida xato kelib chiqsa, birgalikda bu almashtirib yuborish qayerdan kelib chiqqaniga aniqlik kiritiladi;
- til o'rganuvchilar o'qituvchi bilan birgalikda tillar o'tasidagi o'xshashliklarni tanqidiy o'rganib chiqishadi va noto'g'ri do'stlarni o'zлari qidirib topishadi.

Bu kabi topshiriqlar til o'rganuvchilarga o'xshash so'zlarning ma'nolarini farqlab olishga o'rganishga imkon beradi.

So'zlarni o'rganish jarayonida talaffuz mashqlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Agar gap til o'rganuvchining bugungi kunga qadar passiv lug'at qatlamiga oid bo'lgan so'zini faol qo'llashi haqida ketsa, birinchi o'rinda uni qanday qilib to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish lozim. Ayniqsa, inglez tilidagi bilimlar asosida tushuniladigan nemis tilidagi so'zlarda nafaqat mazmunni, balki talaffuzni ham bir xil ko'chirish holatlari ko'p ko'zga tashlanadi [3]. Shu sababdan ham faol so'z boyligi talaffuz bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Maqsadli yo'naltilgan mashqlar til o'rganuvchilarning "Denglisch" larni to'g'ri talaffuzga o'rganishlariga imkon beradi.

Masalan, inglez tilida information singari so'zlardan minglab uchratishimiz mumkin, aynan shunday so'zlarni faqat talaffuzining o'zgarishi yordamida nemis tilidagi so'zlar ham tarjimasiz tushunilishi mumkin. Har ikki tildagi bunday so'zlarni ona tilisi o'zbek tili bo'lgan til o'rganuvchilar ham oson o'rganishlari mumkin.

O'rganish yangi ma'lumotlarni avvaldan mavjud bilimlarga integratsiya qilish yordamida amalga oshadi. So'zlarni o'rganishda har bir alohida so'z kichik o'rganish birligi hisoblanadi va u xotiradagi mavjud so'z boyligi to'riga integratsiya qilinishi lozim [2]. Shunda uning xotirada saqlanishi va unga qayta murojaat qilinganida tez yodga tushishiga imkon tug'iladi. Bu bog'lanishlar qanchalik kuchli bo'lsa, uning qayta yodga tushishi shunchalik oson kechadi. Ushbu jarayonda bir-biriga o'xshash yoziladigan yoki talaffuz qilinadigan so'zlarni eslab qolish yanada oson amalga oshadi.

Buning uchun esa so'zlar o'tasidagi bog'lanishlarni imkon qadar ko'proq topish va til o'rganuvchilarni darsda o'rganilayotgan o'quv materialini tanish kontekstlarga bog'lashga undash kerak bo'ladi. Buni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- vizuallashtirish yordamida. Agar yangi so'zlar rasmlar yoki grafiklardan foydalanilgan holda o'rgatilsa, so'z va obyekt o'tasidagi aloqani shakllantirishga erishiladi;
- kontekstlashtirish. Bunda yangi so'zlar sinonimligi yoki antonimligi, yuqori kategoriya yoki ost kategoriya oidligiga qarab guruhlarga ajratiladi;
- harakatda amalga oshirish. Bunda o'rganilayotgan yangi so'zlar pantomomima orqali tasvirlanadi. Masalan, Wind/shamol so'zini o'rganish uchun qo'llar yordamida shamolning harakati qilinishi mumkin. Bu usul yordamida so'z to'g'ridan-to'g'ri anglanadi va so'z uchun shaxsiy tajriba faollashadi;
- shaxsiy assotsatsiya. Agar til o'rganuvchi yangi so'zlarni o'rganish uchun assotsatsiyalarni o'zi o'yab topsa, bu unga shu so'zlarni oson yodda saqlash va tez qayta eslashga yordam beradi. Bu borada mnemotexnikadan foydalanish ayni muddao.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni alohida qayd etish kerakki, so'z boyligi bilan ishlashda barcha tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tamoyillar yordamida chet tillarni oson va samarali o'rGANISH mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ballweg S. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 120
2. Dieter W. Sprachproduktion als Planung: Ein Beitrag zur Psychologie und Didaktik des Sprechens. Akten der Gesamtschweizerischen Tagung für Deutschlehrerinnen und Deutschlehrer. Tagungsband. –Bern: 2006. – S. 67.
3. Gardner R. A student's contributions to secondlanguage learning. Part II. Affective variables. // Language Teaching. № 26. – p: 1-11.
4. Lyster, R. (1998b): Negotiation of form, recasts, and explicit correction in relation to error types and learner repair in immersion classrooms. *Language Learning* 48, 183-218.
5. Lyster, R./Ranta, L. (1997): Corrective feedback and learner uptake: negotiation of form in communicative classrooms. *Studies in Second Language Acquisition* 19, 37-66.
6. Walz J. C. Error Correction Techniques for the Foreign Language Classroom. Language in Education: Theory and Practice, No. 50. – Center for Applied Linguistics, PO Box 4866, Hampden Station, Baltimore, MD 21211, 1982. p.58
7. Yoqubov I. Comparative Methods of Teaching English at Schools, Lyceums and Colleges. – T.: Bayoz. 2014. – 252 b.